



---

**TEKNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK  
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13294207>

**Soliyeva Gulhayo Xoshimjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti.*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'qitiladigan texnologiya fani darslarida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari, tadbirkorlik faoliyatchini rivojlantirish bo'yicha Prezidentimizning farmonlariga asoslanib o'quvchilarning texnologiya darslarida tadbirkorlik elementlarini takomillashtirishga qaratilgan ma'lumotlar o'z aksini topgan. Bundan tashqari maqolada tadbirkorlikni amalga oshirishning o'quvchilarning bilish faoliyati rivojlantirishdagi ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati hamda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar**

texnologiya fani, tadbirkorlik ko'nikmalari, STEAM yondashuv,  
hunarmandchilik ustaxonalari, "StartUp" madaniyati.

**ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА У  
СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ**

**Солиевой Гульхаё Хошимджан кизи**

Ферганский государственный университет.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье отражена информация, направленная на совершенствование элементов предпринимательства на уроках технологии учащихся на основе указов Президента о развитии предпринимательской активности на уроках технологии, преподаваемых в общеобразовательных школах. Кроме того, в статье говорится о воспитательно-воспитательной значимости предпринимательства в развитии познавательной активности студентов и ориентации студентов на профессию.

**Ключевые слова**

технологическая наука, предпринимательские навыки, STEAM-подход,  
ремесленные мастерские, культура стартапов.



---

## FORMATION OF ENTREPRENEURSHIP SKILLS IN STUDENTS IN TECHNOLOGY LESSONS

**Solieva Gulhayo Khoshimjan kizi**

*Fergana State University.*

### ABSTRACT

In this article, information aimed at improving the elements of entrepreneurship in students' technology lessons based on the decrees of the President on the development of entrepreneurial activity in technology lessons taught in secondary schools is reflected. In addition, the article talks about the educational and educational importance of entrepreneurship in the development of students' cognitive activity and the orientation of students to the profession.

### Keywords

technology science, entrepreneurial skills, STEAM approach, craft workshops, StartUp culture.

Kirish. 2024 yilni “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili” deb e‘lon qilinishi, O‘zbekiston yoshlariga tadbirkorlik faoliyati bilan foydalanishga keng imkoniyatlar ochib berdi. Bu esa ta‘lim jarayonida ham o‘quvchilarni tadbirkorlik faoliyatga yo‘llash, ta‘lim jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarni tadbirkorlikka yo‘llash muhim ekanligini ko‘rsamoqda.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil ravishda amalga oshirilayotgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi respublikamizda rivojlanish taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari bugungi kunda hayotimizning barcha soxalarida, eng muhimi xalqimizning ongu taffakuri, intilish va harakatlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ning 3-bobida keltirilgan “Kadrlar tayyorlashning Milliy modeli”da bozor iqtisodiyoti sharoitida bo‘lg‘usi avlodning ta‘lim va tarbiyasini takomillashtirishning yangi mazmun va shakldagi loyihasi taklif etildi. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ning 3.3.3-bandi “Uzluksiz ta‘lim va turlari” deb nomlanadi. Ushbu bandning “Umumiy o‘rta ta‘lim” deb nomlangan qismida umumiy o‘rta ta‘lim o‘quvchilari bilishi, o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan jihatlar keltirildi. Jumladan: “...o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o‘zlashtirish ehtiyojini, asosiy o‘quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma‘naviy-axloqiy



fazilatlarini, texnologik ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi...", - deydi.

O'quvchilarning fanga shu bilan birga kasbga va tadbirkorlikka yo'llash texnologiyalarini maktab amaliyotiga tatbiq etish orqali, bu masalani yechimini topish mumkin. Hozirgi davrda ta'limni tadbirkorlik bilan uyg'unlashtirish, xalq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi va fermerlar faoliyatini shakllantirishda ilmiy, psixologik va pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlik elementlari umumta'lim maktablarida o'qitiladigan fanlar tizimidan o'rin olishi shakllanib borayotgan yosh avlodni hozirgi zamon ishlab chiqarishining eng muhim tarmoqlarini nazariy va amaliy asoslari bilan tanishtirish imkonini beradi.

Nazariy qism. Hozirgi ilm-fan, texnika va sanoat jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy, ekologik holat munosabatlari o'rganilib borilayotgan vaqtda maktablarda texnologiya fanini mazmun jihatdan yangicha o'qitish (STEAM yondashuvi) ham zaruriyat, ham zamon talabidir. Shu bilan birga texnologik ta'limi jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etishning zamonaviy usullarini tatbiq etish ta'lim tizimini tashkil etish va o'quvchilarda tadbirkorlikni shakllantirishda o'ziga xos rol o'ynaydi. Texnologiya fanining ahamiyati uning fan-texnika va texnologiya taraqqiyotida, ishlab chiqarish sohalari va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Umumta'lim maktablari MO'Dda keltirilgan 7-11 sinflarida texnologiya fani asoslarini o'rganishda ayniqsa qo'l mehnati, yog'ochga ishlov berish, milliy hunarmandchilikga oid mavzularini o'qitishda o'quvchilarni tadbirkorlikka yo'llash orqali kasbga yo'naltirishni amalga oshirishning muhim omili hisoblanadi.

"Texnologiya" fani boshqa o'quv fanlaridan o'quvchilarning muayyan ishlab chiqarish sohalari bo'yicha bilimi, ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi yagona o'quv fani sifatida o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. "Texnologiya" fani mashg'ulotlari maxsus sinf xonalarida, o'quv-tajriba maydonida, o'quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayonida, ishlab chiqarish korxonalarida, hunarmandchilik ustaxonalarida olib boriladi Bugungi kunda maktabgacha, umumiy o'rta, professional ta'lim tizimlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda sanoatlashgan mamlakatda ta'lim olishi, yashashi va ishlashi uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

O'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalari va innovatsiyalarni rivojlantirish istiqbollari oxirgi 30 yil ichida jamiyatni turli sohaslarini tubdan o'zgartirdi. Ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada sanoatlashgan Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, AQSH, Isroil, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida texnologik ta'lim tizimi ishlab chiqarishning asosiy bo'g'ini hisoblanib, jahon mehnat bozoriga malakali



mutaxassislar tayyorlashning muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaraladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida o'qitiladigan texnologiya ta'limi va kasbga yo'naltirish fani jarayonida bo'lg'usi ishchi va mutaxassislarning kasbiy faoliyatida qo'llaniladigan turli xil asbob-uskuna, jihoz va moslamalar bilan ishlash ko'nikma va malakalari shakllantiriladi. Bu jarayonda, ularga mexanizatsiyalashtirilgan, elektrlashtirilgan, avtomatlashtirilgan vositalar bilan ishlash, texnologik bilim, ko'nikma va malakalar hamda mehnat qonunchiligiga rioya qilish, sanitariya-gigiena qoidalari va yo'l-yo'riqlari asoslarini o'rgatish ta'minlanadi.

Texnologiya fani o'qituvchisi har bir mavzuni o'qitayotganida o'quvchilarga ishlab chiqarishning ilmiy asoslari to'g'risida tushuncha berishi, ya'ni, sanoat ishlab chiqarishning fizika, kimyo, geografiya, bionika, chizmachilik, matematika, kibernetika qonunlariga; qishloq xo'jaligiga bog'liq ishlab chiqarishni esa biologiya va kimyo fanlari qonunlariga asoslaganligini ko'rsatib berish lozim va har bir mavzu mazmuniga imkon darajada o'quvchilarning tadbirkorlik va kasbga yo'naltirish uchun ishlab chiqarishning nazariy va amaliy jihatdan tanishtiradigan bilimlar manbai bilan boyitish orqali o'quvchilarning tadbirkorlik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan darajada oshiriladi.

Maktab o'quvchilarida texnologiya fanidan tadbirkorlikka bo'lgan bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qitish shakllaridan o'quv ustaxonalarining o'rnini juda katta ahamiyatga ega. O'quv ustaxonalarida fan yutuqlarining ishlab chiqarishga tatbiq qilinishini o'quvchilarga yaqqol ko'rsatib berish imkonini beradi. O'quvchilarda mehnat madaniyatini va ta'lim jarayonida ishlab chiqarishga bog'liq tadbirkorlik elementlarini to'g'ri tashkil etilishi o'quvchilarda tadbirkorlik sohasida oila byudjetiga keltiriladigan foydani ko'rsatib berish mumkin.

Umumta'lim maktablari ish amaliyotida kinofilmlar va videofilmlarni namoyish etish o'ziga xos o'rin egallaydi. Kinofilm va videofilmlar orqali o'quvchilarni yuksak fan yutuqlarini o'zida aks etgan texnika yutuqlari, ishlab chiqarish mahsulotlari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini va fermerlarni dunyo miqyosida erishayotgan yutuqlarini va ularning faoliyatini qanday tashkil etayotganlarini namoyish etish mumkin. Shuningdek ilg'or maktablarda ta'lim tarbiya jarayonlari va ulardagi dars jarayonlarini o'rganishda videolardan keng foydalanish imkonini beradi. Shu bilan yosh tadbirkorlarning ish jarayonini ham tanishtirish va targ'ibot qilishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar tomonidan bajariladigan amaliy ish ko'rinishidagi uy vazifalari ularda tadbirkorlik elementlariga bog'liq bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda g'oyat muhim rol o'ynaydi.



O'quvchilarni tadbirkorlik masalalariga doir adabiyotga qiziqtirish, va ularda bu adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir. O'quvchilar tadbirkorlikka oid qo'llanmalarni mustaqil o'qib tushuna oladigan va amaliy ishlarida bu qo'llanmalarni ishlata biladigan bo'lsinlar. Ammo fanning turli sohalaridan nimani qachon va qaerda amaliyotda qo'llash mumkinligini o'quvchilarga faqat nazariy jihatdangina ko'rsatish kifoya qilmaydi. Maktabdagi texnologiya fanini maktab ustaxonasidagi faoliyatni yo'lga qo'yish va ularda davlat dasturida ko'rsatilgan barcha laboratoriya va amaliy ishlarni olib borish lozim. Buning natijasida o'quvchilar tadbirkorlik ta'limi talablarini ta'minlay oladigan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari mumkin.

Xulosa. Pedagog olimlar va tadqiqotchilarning tasniflari shuni ko'rsatadiki, ta'lim muhitida tadbirkorlik ko'nikmalari va innovatsiyalarning yo'nalishlariga muvofiq, ta'lim tizimlari o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini tizimlashtirish imkonini beradi. Hozigi davrda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilaridan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida "StartUp" madaniyati tizimi, tadbirkorlik ko'nikmalari va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda o'quvchi-yoshlar orasida targ'ib qilish maqsadida maktablarda master-klass, treninglar o'tkazishni sifatli tashkil etish kompetentsiyalari talab etiladi.

Ushbu muammoning yechimi ilmiy xodimlar hamda ilg'or tajribali amaliyotchi o'qituvchilar fikr mulohazalari, tavsiya va takliflarini inobatga olgan holda yaratilgan ta'lim muhiti bo'lib, texnologiya fani o'qituvchilari, maktablar rahbarlari, metodist va sinf rahbarlari uchun mo'ljallangan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida "StartUp" madaniyati tizimi, tadbirkorlik ko'nikmalari va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda o'quvchi yoshlar orasida targ'ib qilishga mo'ljallangan o'quv-metodik resurslarni ijodiy yondashgan holda tayyorlab qo'llash orqali amalga oshiriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni Toshkent shahri, 2017-yil 7- fevral PF - 4947.
2. Mirziyoev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. // "Xalq so'zi" gazetasi., 2017-yil, 16-iyun.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"gi qonunlari. // T.: "Sharq", 1997.
4. Shomirzayev M. Kh. Technology of Educational Process in School Technology Education // The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – №. 07. – C. 217.



5. Shomirzaev M.X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik.- T.: "TerDU NMMN" 2021, - 228 b.